

YANGI KASABA UYUSHMALARINING ZAMONAVIY FUQAROLIK JAMIYATIDA IJTIMOYIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAMKORLIK YO'NALISHLARI

Ilhomjon Ibrohimovich Kamolov

*O'zbekiston Milliy universiteti izlanuvchisi, O'zbekiston metallurgiya va
mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi
tashkiliy ishlar bo'limi mudiri*

Toshkent, O'zbekiston

Telefon nomer: +99890-062-50-50

^a icamolove@yandex.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida globallashuv va modernizatsiyalash jarayoni shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda "milliy rivojlanish", "milliy modellar", "siyosiy modernizatsiya", "fuqarolik jamiyati" paradigmalarining metodologik asoslariga oid ijtimoiy sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi konseptual qarashlar hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarning roli, ahamiyati va evalyutsiyasini o'rganish borasida ilmiy-nazariy fikrlar va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'z: kasaba uyushmasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, davlat, jamoa shartnomasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются концептуальные взгляды на социальное партнёрство и сотрудничество в контексте методологических основ таких парадигм, как «национальное развитие», «национальные модели», «политическая модернизация», «гражданское общество» в условиях стремительно протекающих процессов глобализации и модернизации в социальных, экономических и духовных сферах. Также выдвигаются научно-теоретические идеи и рекомендации по изучению роли, значения и эволюции неправительственных некоммерческих организаций и других институтов гражданского общества в процессе реализации демократических преобразований во всех сферах общественной и государственной жизни.

Ключевые слова: профсоюз, социальное общество, социальное партнерство, государство, коллективный договор.

ABSTRACT

This article examines conceptual perspectives on social partnership and cooperation within the methodological framework of such paradigms as “national development,” “national models,” “political modernization,” and “civil society,” in the context of rapidly advancing globalization and modernization processes in social, economic, and spiritual spheres. The study also presents scientific and theoretical insights and recommendations concerning the role, significance, and evolution of non-governmental non-profit organizations and other institutions of civil society in implementing democratic transformations across all spheres of public and state life.

Key words: trade union, social society, social partnership, state, collective agreement.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning muhimligi qator xalqaro hujjatlarda ko‘zda tutilgan. Ular fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi rolga alohida ahamiyat qaratadi, muloqot va maslahatlashuv orqali o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni hamda muayyan davlat ko‘magi shakllarini taqdim etish mexanizmlarini joriy etishni ham nazarda tutadi. Jumladan, bu kabi hujjatlar qatoriga BMTning 1968-yildagi «Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi rezolyusiyasi», «Yevropada davlat boshqaruvi masalalari bo‘yicha oq kitob» (2001-yil 25-iyul), «Yevropada nohukumat tashkilotlar mavqeining asosiy prinsiplari» (2003-yil 16-aprel) kabilarni kiritish mumkin¹.

Davlat organlari va kasaba uyushmalari o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari, qoida tariqasida, ushbu munosabatlar sub’ektlarining huquq va majburiyatlarining tengligi, ularning o‘z majburiyatlarini buzganlik uchun o‘zaro javobgarligi va ushbu munosabatlarning shartnoma shaklida ifodalanishi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari o‘z faoliyati davomida birinchi marta federatsiyaning ichki hayoti va jamiyatdagi faoliyati tamoyillari hamda normalarini belgilab beruvchi asosiy hujjat bo‘lgan, “Federatsiya ustavi” qabul qilindi. Unga qadar SSSR kasaba uyushmalarining umumiy ustaviga tayangan holda faoliyat yuritilgan. Kasaba uyushmalari tomonidan ishchi, xodimlar, nogironlar va pensionerlar, talabalar va yosh o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks amaliy harakat dasturlari qabul qilindi.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik - kasaba uyushmalari (kasaba uyushmalarining birlashmalari) timsolida xodimlar, ish beruvchilar (ish

¹ Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам // Ўзб. нашр. Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б.520.

beruvchilarning birlashmalari (ittifoqlari, uyushmalari), davlat organlari o'rtasida xodimlarning, ish beruvchilarning va davlatning ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari bo'yicha manfaatlarini kelishib olishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro hamkorlikdir.

Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar, ularning birlashmalari (ittifoqlari, uyushmalari), davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik teng huquqlilik, vakillarning vakolatligi, taraflarning manfaatlarini hurmat qilish va hisobga olish, majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi prinsiplari asosida quriladi².

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari ijtimoiy sheriklikni quyidagi shaklda amalga oshirishi mumkin:

jamoa shartnomalari, kelishuvlari loyihalarini tayyorlash va ularni tuzish, shuningdek jamoa shartnomalariga, kelishuvlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha jamoa muzokaralari o'tkazish;

jamoa shartnomalari va kelishuvlarining bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

tashkilotlarning lokal hujjatlari loyihalarini kelishib olish;

xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan taraflarning o'zaro maslahatlashuvlari;

tashkilotlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

davlat organlari huzuridagi tegishli jamoatchilik kengashlarida ishtirok etish.

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari ijtimoiy sheriklikda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa shakllarda ham ishtirok etishga haqli.

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari ijtimoiy sheriklik doirasida hamkorlikdagi tadbirlarni o'tkazish tashabbusi bilan chiqishi, ularni tashkil etishi, shuningdek ularda ishtirok etishi mumkin³.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sheriklik va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy sheriklik organlarini rivojlantirishga doir bir qancha huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bular qatoriga O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, Mehnat Kodeksining 4-6-boblari, "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonun, "Nodavlat-notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning maqsadi ijtimoiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Mehnat sohasida bo'lgani kabi

² Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019 y., 03/19/588/4115-son.

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019 y., 03/19/588/4115-son 50-modda.

ijtimoiy sheriklikda ijtimoiy sheriklik munosabatlarning subyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat organlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

Har ikki sohada ham taraflar ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish bo'yicha o'zaro hamkorlikka kirishadilar va turli xil me'yoriy hujjatlarni qabul qilib munosabatlarini tartibga soladilar⁴.

Ijtimoiy sheriklik organlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ushbu qo'llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ish beruvchi va xodimlarning vakillaridan tashkil topgan birlashmalar va boshqa institutlarni mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- ijtimoiy sheriklik organlarida qatnashayotgan tomonlarning vakillariga mehnat oid faoliyatiga turli kafolatlar berish va boshqa qonunchilikka muvofiq imtiyozlar berish;

- ijtimoiy sheriklik organlari faoliyatini moliyaviy va huquqiy qo'llab quvvatlash, davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalari berish, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish.

Kasaba uyushmalari, kasaba uyushmalari birlashmalari, kasaba uyushmalari Federatsiyasi, ish beruvchilar birlashmalari, ish beruvchilar Konfederatsiyasi mehnat sohasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlar bo'lib, ular mehnatga oid ijtimoiy sheriklik organlari faoliyatini amalga oshirishda muhim dastak hisoblanadi. Davlat aynan shu kabi tashkilotlarni rivojlantirish, sohani yangi bosqichga olib chiqish uchun davlat budjetidan subsidiyalar, grantlar ajratishi mumkin. "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonunda davlat nodavlat-notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash uchun jamoat fondlarini tashkil etishi mumkinligi va bu fondlarga mablag' qonunchilikda taqiqlanmagan manbalardan jalb etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat-notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning maqsadi nodavlat notijorat tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat⁵. Ushbu qonunning 2-moddasiga binoan nodavlat notijorat tashkiloti bu - "Jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani)

⁴ «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 25.09.2014 yildagi O'RQ-376-son.

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat-notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. 1999 yil 14 aprel.

o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir” deya belgilab qo‘yilgan.

Ish beruvchilar va kasaba uyushmalariga doir tashkilotlar nodavlat-notijorat tashkilotlar hisoblanadi va ular faoliyatining huquqiy asoslari ham ushbu qonun hujjati bilan belgilab qo‘yilgan. Davlat organlari nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng va adolatli imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi (qonunchilikda belgilangan holatlar mustasno). nodavlat notijorat tashkiloti yuridik shaxs tashkil etgan holda tuziladi. Nodavlat notijorat tashkiloti, agar uning ta‘sis hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, ular faoliyat muddati biror-bir sana bilan cheklanmaydi.

“NNT to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasiga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlari:

jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish;

demokratik boyliklarni himoya qilish;

ijtimoiy, madaniy va maorif sohasidagi maqsadlarga erishish;

ma‘naviy va boshqa nomoddiy talablarni qondirish;

xayr-ehson faoliyatini amalga oshirish;

boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun tuziladi.

“Nodavlat-notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasiga ko‘ra nodavlat-notijorat tashkilotlarining quyidagi huquqlari mavjud:

o‘z ramziy belgilarini ta‘sis etish;

o‘z a‘zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

ommaviy axborot vositalarini ta‘sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish;

o‘z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig‘ilishlar, konferensiyalar o‘tkazish⁶.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat-notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 1999 yil 14 aprel.

Mamlakatimizda NNT faoliyati birinchi galda jamiyatning kam ta'minlangan, yoshi ulug' va mehnatga qobiliyatsiz a'zolarini himoya qilish uchun sharoit yaratish orqali islohot dasturlarini amalga oshirishning ijtimoiy xarajatlarini engillashtirishga, aholi bandligini kengaytirish va boshqa kasblarni ham o'rganishiga, qishloqlar va kichik shaharlardagi islohotlarga ko'maklashishga, fuqarolar bilim darajasini oshirishga, yosh avlodni tarbiyalashga, inson huquqlarini himoya qilishga kichik va o'rta biznes rivojini rag'batlantirishga qaratilgan.

Fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishda, hayotimizdagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda ularning o'rnini tobora oshib bormoqda. Ammo NNTning vazifalari qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmasin, ularni o'z faoliyatining ishonchli iqtisodiy potensialiga ega bo'lgan holda, O'zbekiston qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda o'z mablag'laridan ham, davlatning qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan ham samarali foydalanibgina muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Davlat muayyan kafolat, imtiyoz va preferensiyalar berish, soliqqa tortish va davlat tomonidan moliyalashtirish tartiblarini takomillashtirish yo'li bilan NNT rivojini rag'batlantiradi.

Jumladan, 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish vazifalari belgilab olindi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar samarasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali sohani jadal rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, mamlakatimizda 2017-2023-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati va ularning salkam 2100 ta loyihasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan 513,8 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu maqsadlar uchun 1,8 trillion so'm mablag' ajratildi⁷.

Ma'lumki, so'nggi yillarda kasaba uyushmalari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari bilan yaqin hamkorlikda majburiy mehnat, shu jumladan bolalar mehnatiga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyati institutlari muhim o'rin tutadi. Shu bois, mamlakatimizda ularni

⁷ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston strategiyasi T. "O'zbekiston" 394-bet

yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda⁸.

2020-yil paxta mavsumi davomida olib borilgan doimiy monitoring natijasida byudjet tashkilotlari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari, talabalar va maktab o'quvchilarining terim ishlariga jalb qilish bartaraf qilindi. Bu qator xalqaro nodavlat tashkilotlar, shuningdek, huquq himoyachilari tomonidan yuqori baholanmoqda.

⁸ <https://yuz.uz/news/nnt-va-fuqarolik-jamiyatining-boshqa-institutlarida-faollik-va-tashabbuskorlik-bolishi-zarur>